

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/2025.28.11.T.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘zR FA ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI

MURTAZOV SHERZOD ISAKBAYEVICH

**ELEKTR TA‘MINOTI TIZIMLARINING ISHONCHLILIGINI
KOMPENSATSIYALOVCHI QURILMALARNI QO‘LLASH ORQALI
OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Murtazov Sherzod Isakbayevich

Elektr ta'minoti tizimlarining ishonchligini kompensatsiyalovchi qurilmalarni
qo'llash orqali oshirish.....3

Муртазов Шерзод Исакбаевич

Повышение надежности систем электроснабжения за счет применения
компенсирующих устройств.....23

Murtazov Sherzod Isakbaevich

Improving the reliability of power supply systems through the use of
compensating devices45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/2025.28.11.T.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘zR FA ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI

MURTAZOV SHERZOD ISAKBAYEVICH

**ELEKTR TA‘MINOTI TIZIMLARINING ISHONCHLILIGINI
KOMPENSATSIYALOVCHI QURILMALARNI QO‘LLASH ORQALI
OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6206 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.energetika.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tolipov Jamshid Nurbekovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Xamidov Shuxrat Vaxidovich

texnika fanlari doktori, professor

Xalikhazarov Urolboy Abduraxmanovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40. Tel.: (99855) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O'zR FA Energetika muammolari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40. Tel.: (99855) 520-01-52)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "18" iyul kuni tarqatildi.

(2026 yil "21" iyul dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi)



X.M. Muratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

K.Sh. Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi v.b., texnika fanlari doktori, katta ilmiy
xodim

O.X. Ishnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish va tok garmonikalarini filtr uskunalari yordamida bostirish uchun energiya va resurs tejamkor texnologiyalar va zamonaviy texnika vositalarini qo'llash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. "Dunyo miqyosida 30121729 GVt·soat dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarilishi"¹ va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berishda elektr ta'minoti tizimlarining ishonchliligi muhim hisoblanib, yetkazib berilgan elektr energiyasi sifatini oshirish, 0,4 kV tarmoqlarda reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish va filtr-kompensatsiya qurilmalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan nochiziqli yuklamalarning elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarini me'yoriy qiymatlarga keltirish, reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun passiv o'zgartirgichlar va avtomatik rostlanadigan filtr-kompensatsiya qurilmalaridan keng foydalanish jarayonlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarining elektr ta'minoti tizimlarining ishonchliligini elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarni yaxshilash va reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish orqali oshirish hamda energiya isroflarini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish, elektr tarmoqlarida rezonans hodisalarni aniqlash va oldini olish usullarini takomillashtirish, shuningdek filtr va kondensator qurilmalarining tarmoq bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilish, shuningdek garmonik buzilishlarga olib keluvchi vositalarni aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, iste'molchilarning elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni kamaytirish hamda reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish orqali elektr ta'minoti ishonchliligini oshiruvchi passiv o'zgartirgichni hisoblash va tanlash usullarini takomillashtirish, korxonalar elektr ta'minoti tizimida yuqori tartibli garmonikalarni bostirish uchun filtr-kompensatsiya qurilmalar va imitatsion modellarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda sanoat korxonalarining elektr ta'minoti tizimlarida energiya samaradorligini oshirish, elektr energiyasi sifatini yaxshilash va isroflarni kamaytirish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish"² vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, filtr-kompensatsiya qurilmalari va aktiv o'zgartirgichlarga asoslangan zamonaviy elektrotexnik majmualarni ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarish tarmoqlariga tatbiq etish hamda elektr energiyasi sifat

¹ <https://objectstorage.ap-dcc-gazipur-1.oraclecloud15.com/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

ko'rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish va korreksiyalash imkonini beruvchi yechimlarni yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2023-yil 13-fevraldagi PQ-54-son "Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 1-apreldagi PQ-133-son "Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida" gi qarorlari, 2025-yil 27-martdagi PF-63-son "Energiya samaradorligini oshirish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish va energiya servis kompaniyalari xizmatlari bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-oktabrdagi 673-son "Energiya servis xizmatlari bozorini shakllantirish hamda aholi uy-joylarining energiya samaradorligi oshirilishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 31-maydagi 319-son "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ilmiy ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 2 "Energetika, energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Elektr tarmoqlarida nosinusoidal rejimlarni nazariy tahlil qilish hamda tok va kuchlanish garmonikalarining paydo bo'lish qonuniyatlarini aniqlash hamda tok va kuchlanish garmonik tarkibini Furye tahlili asosida baholash usullarini va garmonik buzilish koeffitsiyentlarini aniqlash metodlarini takomillashtirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Abramovich B.N., Gamazin S.I., Zhelezko Yu.S., Smolovik S.V., Dovgun V.P., Budeanu C., Shidlovskiy A.K., Agunov M.V., Tonkal V.Ye. va boshqalar.

Reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish usullarini rivojlantirish hamda kondensator batareyalari va filtr-kompensatsiya qurilmalarining optimal parametrlarini aniqlashga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: Fozilov X.F., Nasirov T.X., Allayev Q.R., Kamalov T.S., Muratov X.M., Xoshimov F.A., Xamidov Sh.V., Siddiqov I.H., Pirmatov N.B., Ishnazarov O.X., Toirov O.Z. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida nochiziqli yuklamalarning elektr tarmog'iga ta'sirini o'rganish va ularning garmonik buzilishlarga olib keluvchi mexanizmlarini aniqlash, elektr tarmoqlarida rezonans hodisalarini aniqlash va oldini olish usullarini ishlab chiqish, shuningdek filtr va kondensator qurilmalarining tarmoq bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish, elektr energiyasi sifati ko'rsatkichlarini monitoring qilish va diagnostika qilish usullarini ishlab chiqish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarining elektr ta'minoti tizimlarida nochiziqli yuklamalar ta'sirida yuzaga keladigan garmonik buzilishlarni kamaytirish, reaktiv

quvvatni samarali kompensatsiya qilish hamda elektr energiyasi sifati ko'rsatkichlarini yaxshilash masalalari to'liq darajada o'rganilmagan. Xususan, passiv filtr-kompensatsiya qurilmalarining elektr tarmog'i bilan o'zaro ta'siri, garmonik toklarning tarmoq elementlariga ta'siri, filtr parametrlarini optimal tanlash hamda rezonans hodisalarini oldini olishga qaratilgan kompleks matematik modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuningdek, sanoat korxonalarida qo'llanilayotgan chastota o'zgartkichlar va boshqa noxiziq yuklamalar mavjud sharoitda passiv filtr va kondensator batareyalarini birgalikda qo'llash orqali elektr energiyasi sifati ko'rsatkichlarini oshirish masalalari ham yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi 2022-2025-yillarga mo'ljallangan O'zR FA Energetika muammolari institutining "Elektrotexnologiyalar va energetik uskunarlar ekspluatatsiyasi" ilmiy- tadqiqot laboratoriyasining "Taqsimlangan generatsiyalar asosidagi zamonaviy elektr tarmoqlari ekspluatatsiya sharoitlarini shakllantirish muammolari va yechimlari" mavzusidagi dastur doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektr ta'minoti tizimlarida kompensatsiyalovchi qurilmalarni qo'llash orqali ishonchlilikni oshirish bo'yicha ilmiy yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iste'molchilarning elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirini kamaytirish va reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish orqali elektr ta'minoti ishonchliligini oshiruvchi passiv o'zgartkichni hisoblash va tanlash usulini takomillashtirish;

korxonalar elektr ta'minoti tizimida yuqori tartibli 5- va 7- garmonikalarni bostiruvchi va reaktiv quvvatni kompensatsiya qiluvchi filtr-kompensatsiya qurilmasini takomillashtirish;

korxonalar elektr ta'minoti tizimlari uchun yuqori tartibli 5- va 7- garmonikalarni bostirish jarayonlarini amalga oshiruvchi passiv filtrlashning imitatsion modelini ishlab chiqish;

filtr-kompensatsiya qurilmasi yordamida elektr energiyasi sifatini oshirish, garmonik buzilishlarni kamaytirish va reaktiv quvvatni dinamik boshqarish jarayonlarini tavsiflovchi matematik modelni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti- elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va reaktiv quvvatni kompensatsiyalash jarayoni va uni amalga oshiradigan filtr-kompensatsiya qurilmasi.

Tadqiqotning predmeti elektr energiyasi sifatini yaxshilash va reaktiv quvvatni kompensatsiyalash uchun filtr-kompensatsiya qurilma tuzilmalari, parametrlari, xususiyatlari, boshqaruv tizimlari va ish rejimlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik hisoblash qoidalari, nazariy elektrotexnika qonuniyatlari, statistik tahlil usullari, elektr tarmoqlari elementlaridagi quvvat isroflarini hisoblash uchun analitik modellar, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va kompyuter imitatsion modelashtirish usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iste'molchilarning elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirini kamaytirish va reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish orqali elektr ta'minoti ishonchliligini oshiruvchi passiv o'zgartkichni hisoblash va tanlash usuli 5- va 7-garmonikalar rezonans chastotalarini aniqlash, filtrning induktiv hamda sig'im parametrlarini moslashtirish va yuklama quvvat koeffitsiyentini oshirish hisobiga takomillashtirilgan.

korxonalar elektr ta'minoti tizimida yuqori tartibli 5- va 7- garmonikalarni bostirish va reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish imkonini beruvchi filtr-kompensatsiya qurilmasi konstruktsiyasiga o'zgartirish kiritish hisobiga takomillashtirilgan;

korxonalar elektr ta'minoti tizimlari uchun yuqori tartibli 5- va 7- garmonikalarni bostirish jarayonlarini amalga oshirish imkonini beruvchi passiv filtrlashning imitatsion modeli Matlab/Simulink muhitida ishlab chiqilgan;

filtr-kompensatsiya qurilmasi yordamida elektr energiyasi sifatini oshirish, garmonik buzilishlarni kamaytirish va reaktiv quvvatni dinamik boshqarish jarayonlarini tavsiflash imkonini beruvchi matematik model vazn koeffitsiyentlarini kiruvchi parametrlar sifatida inobatga olib ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

elektr energiyasi sifatini yaxshilash va reaktiv quvvatni kompensatsiyalashni amalga oshiradigan filtr-kompensatsiya qurilma ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan filtr-kompensatsiya qurilmasi 0,4 kV li elektr ta'minoti tizimida qo'llanilganda elektr energiyasi isroflarini 10-15 % gacha kamayishi va bir paytning o'zida tarmoqdagi quvvat koeffitsienti 0,95 dan yuqori darajasida barqaror ushlab turishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy tahlil, matematik modellashtirish, kompyuterli imitatsion tajribalar va ishlab chiqarish sharoitidagi eksperimental sinovlar o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan filtr-kompensatsiya qurilmasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elektr ta'minoti tarmoqlarida quvvat va energiya isroflarining shakllanish qonuniyatlari hamda ularni kamaytirish mexanizmlari nazariy asoslanganligi, reaktiv quvvat kompensatsiyasi jarayonining matematik modeli yaratilganligi, kuchlanish va tok nosimmetriyasining elektr energiyasi sifatiga ta'sirini ifodalovchi analitik bog'lanishlar aniqlanganligi hamda ishlab chiqilgan ilmiy asoslar va ishlab chiqilgan ifodalardan turli quvvatdagi elektr ta'minoti tizimlarida filtr-kompensatsiya qurilmalarining optimal parametrlarini tanlash va ularning ish rejimlarini tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan aktiv o'zgartkichli filtr-kompensatsiya qurilmasining elektr energiyasi isroflarini 10-15 % gacha kamaytirish, quvvat koeffitsientini barqaror ushlab turish, kuchlanish tebranishlarini 20-25 % gacha qisqartirish hamda elektr energiyasi sifatini me'yoriy darajada ta'minlash imkonini berishi hamda elektr tarmoqlarining ishonchliligi, barqarorligi va

energiya samaradorligi oshishi, ishlab chiqarish korxonalarida energiya ta'minoti ishonchliligi darajasi sezilarli yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektr ta'minoti tizimlarining ishonchliligini kompensatsiyalovchi qurilmalarni qo'llash orqali oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, yuqori tartibli garmonik komponentlarni bostirish va reaktiv quvvatni optimal kompensatsiyalashni ta'minlovchi filtr-kompensatsiya qurilmasi "SULTON TEX GROUP" MCHJ ga joriy qilingan ("Hududiy elektr tarmoqlari" AJ ning 2025-yil 30-oktabrdagi 01-02-08/1645-son ma'lumotnomasi). Natijada korxonaning 0,4 kV taqsimlash tarmog'ida elektr energiyasi isroflarini 12–15 % gacha kamaytirish, kuchlanishning umumiy garmonik buzilish koeffitsientini 5–7 % gacha pasaytirish hamda quvvat koeffitsientini 0,99 gacha oshirishga erishilgan;

elektr iste'molchilarning quvvati, yuklama grafigi va tarmoq parametrlari, shuningdek garmonik tarkibini kompleks hisobga olgan holda elektr energiyasi sifatini yaxshilash va reaktiv quvvatni optimal kompensatsiyalashni ta'minlovchi algoritm, imitatsion model va dasturiy mahsulot "SULTON TEX GROUP" MCHJ ga joriy qilingan ("Hududiy elektr tarmoqlari" AJ ning 2025-yil 30-oktabrdagi 01-02-08/1645-son ma'lumotnomasi). Natijada korxonaning taqsimlash tarmog'ida elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish va elektr ta'minot tizimlarining ishonchliligini oshirish hisobiga yiliga 125 000 000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy amaliy anjumanlar, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarida 8 ta ilmiy maqola (1 ta xorijiy va 7 ta mahalliy) jurnallarda chop etilgan va 1 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Elektr ta'minoti tizimlari ishonchliligini ta'minlashda elektr energiyasining sifati va garmonik buzilishlarning ta'siri" deb nomlangan birinchi bobida sanoat elektr ta'minoti tizimlarida elektr energiyasi sifati

ko'rsatkichlari, ularning baholash mezonlari, yuqori garmonikalar hosil bo'lish sabablari hamda ularning transformatorlar, kabel liniyalari va kompensatsiya qurilmalariga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, garmonik buzilishlarning elektr ta'minoti tizimlari ishonchliligiga ta'siri, energiya yo'qotishlarining ortishi va texnologik jarayonlar barqarorligining pasayishiga olib keluvchi omillar ilmiy asosda o'rganilgan.

Olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi:

- sanoat elektr ta'minoti tizimlarida yuqori garmonikalar ta'sirini kompleks baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan;
- noxiziqli yuklamalar (ayniqsa chastota o'zgartkichlar) ta'sirida yuzaga keladigan garmonik buzilishlarning transformator va kabel liniyalaridagi qo'shimcha energiya yo'qotishlariga ta'siri yetarli darajada hisobga olinmagan;
- elektr energiyasi sifati ko'rsatkichlarini baholashda garmonik buzilishlar va reaktiv quvvatning o'zaro bog'liqligi ko'plab hollarda to'liq inobatga olinmagan;
- kondensator batareyalari mavjud tizimlarda rezonans hodisalari va ularning elektr ta'minoti ishonchliligiga ta'siri yetarlicha chuqur o'rganilmagan;
- amaldagi usullarda elektr energiyasi sifati va tizim ishonchliligini kompleks baholash uchun yagona integral ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli darajada rivojlantirilmagan;
- filtr-kompensatsiya qurilmalarini tanlash va hisoblashda real ekspluatatsiya sharoitlari, yuklama xarakteri va garmonik tarkib to'liq hisobga olinmagan.

Olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “Elektr ta'minoti tizimlarida reaktiv quvvat kompensatsiyasi va garmonik buzilishlarni kamaytirish usullari” deb nomlangan ikkinchi bobida elektr ta'minoti tizimlarida reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish usullari, kondensator batareyalarining ishlash prinsipi va ularni tanlash asoslari, filtr-kompensatsiya qurilmalarining tasnifi hamda ularning garmonik buzilishlarni kamaytirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, passiv, aktiv va gibridd filtr-kompensatsiya qurilmalarining texnik xususiyatlari, ishlash algoritmlari hamda ularni sanoat elektr tarmoqlarida qo'llashning nazariy asoslari o'rganilgan.

Funksional vazifasiga ko'ra tasnifi reaktiv quvvat kompensatsiyalovchi qurilmalar quvvat omilini ($\cos\varphi$) oshirish uchun qo'llaniladi. Asosiy turlari:

- Kondensator batareyalari;
- Avtomatik bosqichli kompensatsiya tizimlari (APFC);
- Sinxron kompensatorlar;
- STATCOM.


Funksional vazifasiga ko'ra filtr-kompensatsiya qurilmalari reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi, garmonik buzilishlarni filtrlovchi hamda kompleks ta'sirga ega bo'lgan qurilmalarga bo'linadi (1-rasm). Birinchi guruhga asosan quvvat omilini oshirishga mo'ljallangan kondensatorli tizimlar kiradi. Ikkinchi guruh qurilmalari yuqori tartibli garmonikalarni kamaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi guruh esa reaktiv quvvat va garmonik buzilishlarni birgalikda optimallashtiruvchi kompleks filtr-kompensatsiya tizimlarini qamrab oladi.



1-rasm. Filtr-kompenstasiya qurilmalarining tasnifi

Passiv filtrlar turli konstruktiv tuzilishga ega bo'lib, ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat: tor polosali filtrlar (ma'lum garmonikani bartaraf etishga mo'ljallangan), keng polosali filtrlar (bir nechta garmonikalarni kamaytirish uchun qo'llaniladi) hamda C-tipli filtrlar. Ushbu qurilmalar elektr tarmog'ining chastota xarakteristikasiga mos ravishda sozlanadi va garmonik toklarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tor polosali filtr (2-rasm, a) ketma-ket ulangan tebranish konturi bo'lib, u elektr tarmog'idagi ma'lum bir garmonikani bostirish hamda asosiy chastotada reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun sozlanadi. Bunday filtr odatda ma'lum tartibli garmonik toklarni kamaytirish maqsadida qo'llanadi.



2-rasm. Passiv filtr-kompenstasiya qurilmalarining asosiy konfiguratsiyalari:

a) tor polosali filtr; b) 2-tartibli keng polosali filtr; c) 3-tartibli keng polosali filtr; d) C-tipli filtr.

Tor polosali filtr yordamida bostiriladigan garmonikaga mos rezonans chastota f_r quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$f_r = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}} \quad (1)$$

bunda: L – filtr induktivligi; C – filtr sig'imi.

Garmonik filtr ishlash jarayonida ma'lum miqdorda reaktiv quvvat hosil qiladi. Ushbu reaktiv quvvat quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$Q = \frac{n^2}{n^2-1} Q_K \quad (2)$$

bunda: n – filtr sozlangan garmonika tartibi; Q_K – filtr tarkibidagi kondensatorlarning reaktiv quvvati.

Filtrning o'tkazish polosasi nisbiy birliklarda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\Delta = \frac{f_1-f_0}{f_0} = \frac{1}{q} = \frac{r}{X_0} \quad (3)$$

bunda: Δ – filtrning o'tkazish polosasi kengligi; q – filtrning asllik koeffitsienti; r – rezonans konturining aktiv qarshiligi; X_0 – rezonans konturining reaktiv qarshiligi.

Masalan, 7-garmonika kuchlanishini filtrlash zarur bo'lganda, unga yaqin joylashgan 5-garmonika mavjud bo'lsa, odatda ikkita tor polosali filtrdan iborat filtr bloki o'rnatiladi. Bu filtrlarning biri 5-garmonikaga, ikkinchisi esa 7-garmonikaga sozlanadi.

Dissertatsiyaning “**Korxonalar elektr ta'minoti uchun filtr kompensatsiya qurilmasini ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobida ip yigiruv korxonasining texnologik jarayonlar zanjiri o'rganilgan. Korxonada o'rnatilgan RSB-D 45 va SB-D 45 turidagi piltalash mashinalarining elektr yuritmalarida texnologik jarayonni barqaror boshqarish hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida 11 kVt nominal quvvatga ega chastota o'zgartkichlar qo'llaniladi.



3-rasm. Korxona elektr tarmog'ida tok garmonikalarining spektral taqsimoti va umumiy garmonik buzilish koeffitsiyenti (THD) qiymatlari

Ushbu elektr yuritmalar impuls-kenglik modulyatsiyasi (PWM) printsipli asosida ishlashi sababli elektr tarmog'ida yuqori chastotali elektromagnit buzilishlar hamda garmonik tok komponentlari hosil bo'lishiga olib keladi. Natijada elektr ta'minoti tizimida elektromagnit buzilishlarning paydo bo'lishi, kabel liniyalari bo'ylab yuqori chastotali toklarning tarqalishi hamda avtomatika va boshqaruv zanjirlarida noto'g'ri ishlash holatlari kuzatilishi mumkin.

O'lchov natijalariga ko'ra elektr tarmog'ida garmonik tok komponentlarining sezilarli darajada mavjudligi aniqlangan (3-rasm).

1-jadval


Elektr tarmog'idagi garmonik tok komponentlarining spektral tahlili

Garmonika tartibi	A faza (%)	B faza (%)	C faza (%)
DC	0	0	0
3	1.1	0.9	1.3
5	24.2	24.8	26.1
7	14.1	14.5	15.0
9	0.5	0.4	0.6
11	4.8	4.6	4.9
13	4.2	4.0	4.3
15	0.6	0.5	0.7
17	2.1	2.0	2.2
19	1.8	1.7	1.9
21	0.6	0.5	0.7
23	0.9	0.8	1.0
25	0.6	0.5	0.7
27	0.4	0.3	0.5
29	0.3	0.3	0.4
31	0.2	0.2	0.3
33-49	<0.2	<0.2	<0.2

Mazkur qiymatlar elektr energiyasi sifati bo'yicha GOST 32144-2013 va IEC 61000 standartlarida belgilangan ruxsat etilgan 5 % chegaradan bir necha baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi (1-jadval).

O'lchov natijalarida transformator va kabel liniyalarining garmonik yuklanish darajasini baholovchi K-faktor qiymati ham aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra K-faktor qiymati fazalar bo'yicha quyidagicha bo'ldi:

$$K_A = 24.1, \quad K_B = 24.2, \quad K_C = 27.1$$



4-rasm. Korxona elektr ta'minoti tizimida liniya kuchlanishlarning vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

K-faktor qiymatlarining 20 dan yuqori bo'lishi elektr tarmog'ida yuqori garmonik yuklama mavjudligini bildiradi (4-rasm). Bu holat transformator

chulgʻamlarining ortiqcha qizishiga, kabel izolyatsiyasining tez eskirishiga hamda kondensator batareyalarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Korxonada piltalash (RSB-D 45 va SB-D 45) qurilmalarining elektr yuritmalarini tezlik boʻyicha rostlash maqsadida 11 kVt nominal quvvatli chastota oʻzgartkichlar qoʻllanilganda, tarmoqqa uzatiladigan elektromagnit buzilishlar va yuqori chastotali tok komponentlari sababli kirish zanjirida passiv EMI/RFI filtr oʻrnatish talabi yuzaga keladi. Chastota oʻzgartkich kirish quvvati P_{in} uning foydali ish koʻeffitsiyenti η_{vfd} orqali aniqlanadi:

$$P_{in} = \frac{P_{out}}{\eta_{vfd}} = \frac{11}{0,96} = 11,46 \text{ kVt} \quad (4)$$

Uch fazali tarmoqda asosiy garmonik boʻyicha liniya toki I_1 quyidagicha topiladi:

$$I_1 = \frac{P_{in}}{\sqrt{3}U_{LL}PF_1}. \quad (5)$$

$U_{LL} = 380 \text{ V}$ hamda toʻgʻrilagichli kirish bosqichi uchun $PF_1 = 0.95$ qabul qilinganda $I_1 \approx 18.3 \text{ A}$ ga teng.

Chastota oʻzgartkich diodli 6-pulsli toʻgʻrilagichga ega boʻlgani uchun garmoniklar spektri $h = 6k \pm 1$ (5-, 7-, 11-, 13-...) koʻrinishida shakllanadi va tokning umumiy garmonik buzilish koʻeffitsiyenti THD_I ortadi. RMS tokning oʻsishi:

$$I_{rms} = I_1 \sqrt{1 + THD_I^2} \quad (6)$$

munosabat bilan baholanadi.

$THD_I = 0.45$ qabul qilinganda:

$$I_{rms} = 18.3 \sqrt{1 + 0.45^2} \approx 20.1 \text{ A} \quad (7)$$

hosil boʻladi. Filtr elementlari issiqlik rejimi va uzluksiz ish sharoitida tok boʻyicha zaxira koʻeffitsiyenti k_I bilan tanlanadi:

$$I_{filter} \geq k_I I_{rms}. \quad (8)$$

Sanoat sharoitida $k_I = 1.25$ qabul qilinganda:

$$I_{filter} \geq 1.25 \cdot 20.1 \approx 25.1 \text{ A}$$

talab etiladi. Schaffner FN3258-30-33 filtring nominal toki $I_N = 30 \text{ A}$ boʻlib, u hisoblangan 25.1 A talabni qoplaydi va issiqlik hamda ekspluatatsion zaxirani taʼminlaydi.

Kuchlanish boʻyicha tanlash sharti $U_N \geq U_{LL} \cdot k_U$ koʻrinishida ifodalanadi, bunda k_U tarmoq kuchlanishining ogʻishi va oʻtkinchi jarayonlar zaxirasini bildiradi.

EMI filtring fizik mazmuni PWM kommutatsiyasi natijasida yuzaga keladigan yuqori dv/dt va di/dt frontlari sababli shakllanuvchi yuqori chastotali oʻtkazuvchan buzilish toklarini (I_{CM} va I_{DM}) pasaytirishdan iborat. Oʻtkazuvchan buzilish toklarining yuqori chastotali komponentlari ekvivalent impedanslar orqali:

$$I_{noise}(f) = \frac{V_{noise}(f)}{Z_{source}(f) + Z_{filter}(f) + Z_{load}(f)} \quad (9)$$

koʻrinishida tavsiflanadi; filtr qoʻshilganda $Z_{filter}(f)$ ning chastotaga bogʻliq oʻsishi yuqori f sohalarda $I_{noise}(f)$ ni kamaytiradi. Natijada kabel boʻylab tarqaluvchi oʻtkazuvchan buzilish, boshqaruv zanjirlarida notoʻgʻri triggerlanish, PLC/sensor signallarida xatoliklar hamda qoʻshni uskunalarga elektromagnit taʼsir pasayadi.

Shu tariqa, tok boʻyicha: $I_{filter} \geq 25.1 \text{ A}$

Kuchlanish bo'yicha 3×480 V darajadagi zaxira hamda chastota o'zgartgichlar kommutatsiyasidan kelib chiquvchi yuqori chastotali buzilishlarni bostirish talablari asosida 30 A nominalga ega passiv EMI/RFI filtrning har bir 11 kVt chastota o'zgartkich kirishiga o'rnatilishi texnik jihatdan asoslangan yechim sifatida rasmiylashtiriladi.

Filtrning optimal parametrlari L_f , C_f , R_f quyidagi funksionalni minimallashtirish orqali aniqlanadi:

$$\Phi(L_f, C_f, R_f) = \alpha_1 \sum_{h \in H} \left(\frac{I_h^{(f)}}{I_h^{(0)}} \right)^2 + \alpha_2 \left(\frac{Q_f - Q_{req}}{Q_{req}} \right)^2 + \alpha_3 \left(\frac{f_{res} - f_h}{f_h} \right)^{-2} + \alpha_4 \frac{P_{loss}}{P_{base}} + \alpha_5 \left(\frac{THD_U - THD_{U,lim}}{THD_{U,lim}} \right)^2 \rightarrow \min \quad (10)$$

Bunda: $I_h^{(0)}$ – filtrsiz holdagi h-garmonika toki; $I_h^{(f)}$ – filtr ulangan holatdagi h-garmonika toki; Q_f – filtrning reaktiv quvvati; Q_{req} – talab etilgan kompensatsiya quvvati; f_{res} – tizimning haqiqiy rezonans chastotasi; P_{loss} – filtr elementlaridagi aktiv yo'qotish; P_{base} – bazaviy aktiv quvvat; THD_U – kuchlanish bo'yicha to'liq garmonik buzilishi; $THD_{U,lim}$ – ruxsat etilgan THD chegarasi; $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4, \alpha_5$ – vazn koeffitsiyentlari


Integral optimal parametr tanlash formulasi

$$J(L_f, C_f, R_f) = \sum_{h \in H} \beta_h \left| \frac{Z_{sys,h}}{Z_{sys,h} + Z_{f,h}} \right|^2 + \gamma_1 \left(\frac{Q_f - Q_{req}}{Q_{req}} \right)^2 + \gamma_2 \left(\frac{THD_I}{THD_{I,lim}} \right)^2 + \gamma_3 \left(\frac{P_{loss}}{P_{base}} \right) + \gamma_4 \left(\frac{\Delta U}{\Delta U_{lim}} \right)^2 \rightarrow \min \quad (11)$$

Bunda β_h – har bir garmonikaning vazn koeffitsiyenti; $\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3, \gamma_4$ – optimallashtirish vaznlari; ΔU – kuchlanish og'ishi

Yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqib, korxona elektr ta'minoti tizimi uchun Schaffner FN3258-30-33 turidagi passiv EMI filtr tanlandi va mazkur filtr quyidagi texnik xarakteristikalariga ega:

- nominal tok: 30 A
- maksimal ish kuchlanishi: 3×480 V AC
- ish chastotasi: 0–60 Hz
- elektromagnit buzilishlarni bostirish diapazoni: 150 kHz – 30 MHz
- ruxsat etilgan ortiqcha yuklama: 1,5 In (1 minut)
- ish harorati diapazoni: $-25^\circ\text{C} \div +100^\circ\text{C}$.



5-rasm. RSB-D45 (SB-D45) mashinasining elektr yuritma tizimining strukturaviy sxemasi


Mazkur filtr 100 kHz – 1 MHz chastota diapazonida elektromagnit buzilishlarni 40–70 dB gacha kamaytirish imkoniyatiga ega. Filtr qurilmasi chastota o'zgartkichning kirish qismiga quyidagi ketma-ketlikda ulanadi (5-rasm):

Elektr tarmog'i → passiv EMI filtr → chastota o'zgartkich → elektr motor

6-rasmda korxona elektr ta'minoti tizimida yuqori tartibli 5- va 7-garmonikalarni bostirish hamda reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun qo'llanilgan passiv filtr-kompensatsiya qurilmasi keltirilgan. Qurilma tarkibiga drossel, kondensator batareyalari va himoya-kommutatsiya elementlari kiradi. Mazkur qurilma elektr tarmog'ida garmonik buzilishlarni kamaytirish, quvvat koeffitsiyentini oshirish, kuchlanish sifatini yaxshilash va elektr ta'minoti tizimining ishonchligini ta'minlash imkonini beradi.




6-rasm. 5 va 7-garmonikaga sozlangan passiv filtr-kompensatsiya qurilmasi



7-rasm. Elektr tarmog'idagi tok garmonikalarining spektri va THD ko'rsatkichlari

Taklif etilgan filtr-kompensatsiya qurilmasida induktivlikning optimal tanlanishi natijasida chulg'am o'ramlar soni kamaytirilgan, bu esa aktiv qarshilik va mis yo'qotishlarining sezilarli pasayishiga olib kelgan. Rezonans chastotalarning aniq sozlanishi orqali 5 va 7-garmonikalar selektiv bostiriladi, natijada tarmoqdagi garmonik toklar kamayib, transformator va kabel liniyalaridagi issiqlik yo'qotishlari qisqaradi. Shu bilan birga, quvvat koeffitsiyenti oshadi, qurilma ixcham va modulli tuzilishga ega bo'lib, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish qulaylashadi. Umuman olganda, qurilma energiya yo'qotishlarini kamaytirish, ishonchlilikni oshirish va yuqori foydali ish koeffitsiyentini ta'minlash orqali elektr ta'minoti tizimining umumiy energetik samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.



8-rasm. Passiv filtr-kompensatsiya qurilmasini tanlashning blok-sxemasi

Uch fazali elektr tarmog'ida tok garmonikalarining spektral tahlili natijalari 7-rasmda keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, A, B va C fazalaridagi tokning

umumiy garmonik buzilish koeffitsienti mos ravishda $THD_A = 10,4 \%$, $THD_B = 10,6 \%$ va $THD_C = 11,2 \%$ ni tashkil etadi. Bu qiymatlar elektr tarmog'ida sezilarli darajada nochiziqli yuklamalar mavjudligini ko'rsatadi. Garmonik spektrning tahlili shuni ko'rsatadiki, buzilishlarning asosiy qismi 5- va 7-tartibli garmonikalar hissasiga to'g'ri keladi. Grafikda 5-garmonikaning amplitudasi taxminan 16–17 %, 7-garmonikaniki esa 9–10 % atrofida ekanligi kuzatiladi. Bundan tashqari, 11- va 13-tartibli garmonikalar ham mavjud bo'lib, ularning ulushi nisbatan kichik – 2–3 % atrofida. Yuqori tartibli garmonikalar (17 va undan yuqori) esa juda kichik qiymatga ega bo'lib, umumiy buzilish ko'rsatkichiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.

